

**O'SIMLIKlar EKOLOGIYASI**

*T.U. Raximova O'zbekiston Milliy universiteti professori,*

**N.Y. Kuchkarov**

*O'zbekiston Milliy universiteti Ekologiya kafedrasi dotsenti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada iqlim o'zgarishlari sharoitida istiqbolli o'simliklar ekologiyasi asosida buzilgan ekotizimlarni biorekultivatsiya qilish, qo'rg'oqchilikka moslashgan turlarni ekib, tabiiy tizimlarni tiklash masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Crassulaceae, Sedoideae, giperkserofit, eukserofit, teroiremokserofit, gemikserofit, kseromezofit, mezofit.

**Abstract:** This article examines the issues of bioremediation of disturbed ecosystems based on promising plant ecology in the face of climate change, planting drought-adapted species, and restoring natural systems.

**Key words:** Crassulaceae, Sedoideae, hyperxerophyte, euxerophyte, teroiremoxerophyte, hemixerophyte, xeromesophyte, mesophyte.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы биорекультивации нарушенных экосистем на основе перспективной экологии растений в условиях изменения климата, посадки видов, адаптированных к засухе, и восстановления природных систем.

**Ключевые слова:** Crassulaceae, Sedoideae, гиперксерофит, эуксерофит, тероирремоксерофит, гемиксерофит, ксеромезофит, мезофит.

Aholi sonining o'sishi - antropogen omillar kuchayishi natijasida, iqlim o'zgarishlari jarayonlari sodir bo'lmoqda. Ekologiya fanini tabiat qonuniyatlarini bilmasdan turib o'rghanish, huddi kimyonni D.I. Mendeleyev davriy qonuni hamda elementlar davriy jadvalisiz o'rghanish va fizikani butun olam tortilish kuchidan

boshlab A. Eynshteynning nisbiylik nazariyasini bilmasdan turib o‘rganish bilan barobardir.

Tabiatda ayrim ekotizimlarning buzilishi va ifloslanishi butun biosferaga ta’sir qilmoqda. Misol tariqasida Orol ekosistemasining buzilishi natijasida Orolqum deb nomlangan yangi bir ekotizimning ta’siri keskin sezilmoqda. Bu kabi muammolarning kelib chiqishida albatta antropogen ta’sirning o‘rnii beqiyos. G.Galeley ta’kidlaganidek tabiat qonunlari matematika tilida yozilgan. Bu degani barcha ne’matlar hisob-kitoblarga asoslangan. Umuman biosferada hamma komponentlar o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq, birining o‘zgarishi ikkinchisining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun ekosistemalarni saqlash muhim vazifa bo‘lib, uni keyingi avlodga qoldirish barqaror rivojlanish deyiladi. Qo‘rg‘oqchilikka, yuqori haroratga, tuproq sho‘rlanishiga, havoning zararli gazlar bilan ifloslanishiga va boshqa omillarga chidamli turlarni oldindan ilmiy bashorat qilish hozirgi vaqtda dolzarb masalalardan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Farg‘ona vodiysi Chortoq, Chust va Pop adirlari sharoitida o‘simliklarning qo‘rg‘oqchilikka chidamliligini tizimli analiz qilish asosida ekologik klassifikasiya T.U. Raximova (1988) tomonidan yaratilgan (1-sxema). Ekologik klassifikasiyada o‘simliklar quyidagi guruhlarga bo‘lingan unda o‘rganilgan o‘simliklarning strukturaviy, funksional va biologik xususiyatlari inobatga olindi va o‘rganilgan, o‘simliklar qurg‘oqchil sharoitiga moslashishiga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo‘lingan.


- ❖ Kserofitlar tipi:
  - giperkserofitlar;
  - eukserofitlar;
  - teroiremokserofitlar;
  - gemikserofitlar.
- ❖ Mezofitlar tipi:
  - kseromezofitlar;
  - mezofitlardir.

O‘simliklar suv bilan ta’minlanishining bir oz izdan chiqishi ham o‘simlik qoplamida tuzatib bo‘lmaydigan darajadagi o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi

mumkin. Suv o'simliklarning o'sishida bevosita muhim rol o'ynaydi. Hujayralar ichida suv ta'sirida hosil bo'ladigan turgor bosim hujayralarning hali elastik bo'limgan yosh qobig'ining cho'ziluvchanligini ta'minlaydi. Bu esa hujayralar hajmining kattalashishiga imkon beradi. Shuning uchun suvsizlik o'sishni sekinlashtiradi, chunki bunda hujayralar to'liq cho'zilmaydi. Hujayralar qobig'ining elastikligi kamayib borishi (selluloza to'planishi) tufayli o'simlik suv bilan yetarli ta'minlangan taqdirda ham ular to'liq kattalashmaydi. Suv tanqis bo'ladigan kunduzgi vaqtida o'simliklar poyasining diametri tungi vaqtdagiga qaraganda kichikroq bo'ladi, bu esa turgor holatlar farqiga bog'liq. Shuning uchun o'simliklarning yer ustki qismlari asosan tungi soatlarda o'sadi, chunki bu vaqtda suvning transpirasiya tufayli sarflanishi kamayadi va turgessensiya tiklanadi. O'simliklar hosil qilgan quruq modda mahsuloti ular suv bilan qanchalik ta'minlanganini ifodalaydigan asosiy ko'rsatkichlar hisoblanadi. O'simliklarning suv bilan ta'minlanishi ularning tashqi morfologiyasida, anatomik strukturasida, guruhlardagi holatida va o'simlik qoplaming zonal tarqalishida chuqur iz qoldiradi. Lekin o'simliklar uchun faqat suvning miqdori emas, balki uning atmosferadagi va tuproqdagagi holati ham muhim rol o'ynaydi. O'simliklar suvni asosan suyuq holatda iste'mol qiladi. Mo'tadil va sovuq iqlim mintaqalarida qattiq fazadagi suv o'simliklarga juda katta bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Crassulaceae DC. – Semizakdoshlar oilasi 6 ta oilachani o'z ichiga oladi. Sedoideae – Sedum ko'p yillik o'simliklar bo'lib, barglari qarama-qarshi joylashgan bo'ladi. Gullari 3(5-12) a'zoli. Crassulaceae odatda quruq va ochiq joylarda, ko'pincha toshlar orasida o'sadi. Crassulaceae kaktuslar kabi qurg'oqchil mintaqalar o'simliklarining ekologik guruhibiga mansub bo'lib, sukkulentlardir. Oila 30 dan ortiq avlod va 1500 turni o'z ichiga oladi. Asosan iqlimi issiq va quruq mintaqalarda tarqalgan.

## **1-sxema**



O'zMU Botanika bog'i sharoitida *S. spectabile* o'simligi 2023-2024 yillar davomida sug'orilmagan sharoitda o'sishi va rivojlanishi kuzatildi, unga ko'ra fenologik tadqiqotlar natijasida vegetatsiya davomida ontogenezning barcha davr va bosqichlari muvvaffaqiyatl o'tganligi aniqlandi. Iqlim o'zgarishlari sharoitida bunday istiqbolli turlarni ko'paytirish dolzarb masala hisoblanadi.

Antropogen omillar ta'sirida ya'ni tog'-konchilik sohasida kerakli qazilma boyliklaridan foydalanilganda ko'plab texnogen buzilgan yerlar tabiatga zarar keltirmoqda. Shu sababli qazilma boyliklari olingandan keyin ushbu joylarda rekultivatsiya va biologik rekltivatsiya ishlarini olib borib buzilgan ekotizimlarni tiklash dolzarb muammo. Bu borada Angren texnogen otvalllari joylashgan hududlarda biorekultivatsiya bo'yicha ilmiy ishlar olib borildi, hamda turli yem-xashak ekinlari ekilib, ekin maydonlar hosil qilinib tabiiy ekotizimlar tiklandi (1-rasm).



**1-rasm. Angren tog‘-kon sanoati jarayonlari natijasida buzilgan ekotizimlarni biorektivatsiyasi**

Bu kabi ishlarni respublika miqyosida boshqa buzilgan yerlarda ham o‘simliklar jamoasini tiklash maqsadga muvofiqdir.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. Allaberdiyev R.X., Raximova T.U., Kuchkarov N.Y., Sherimbetov V.X. Ekologiya asoslari. “Poytaxt exclusive”, 2024 – B. 124.
2. Raximova T.U., Allaberdiyev R.X., Atabayeva N.K., Kuchkarov N.Y. Bioekologiya (O‘simliklar ekologiyasi) – Toshkent, 2017 – B. 57-60.
3. Рахимова Т.У. Экология растений адирной зоны Узбекистана – Ташкент: Университет, 1997. Часть I – С. 46-276.
4. Рахимова Т.У. Экология растений адирной зоны Узбекистана. – Ташкент: Университет, 1997, Часть II – С. 195.